USMON AZIM IDIOSTILIDA OKKAZIONAL BIRLIKLAR MUHIM BELGI SIFATIDA

Ma’rifat Xusanova
FarDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
xusanovamarifat@gmail.com
http://orcid.org/0000-0003-2736-2346

Annotatsiya

Lingvopoetik tadqiqotlarda idiostil masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uning markaziy tushunchalaridan biri hisoblangan okkazional birliklar, uning idiolektdagi o‘rni ham ijodkor individualligini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada idiostilning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan okkazional birliklar xususida fikr yuritilgan. Mavzuga doir lisoniy dalillar Usmon Azim ijodi misolida tahlilga tortilib, xulosalangan.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, adabiy til me’yori, lingvopoetika, idiostil, idiolekt, metafora, okkazional birliklar, novatorlik.*

KIRISH

Bugungi kunda ijodkor idiostilini o‘rganish, uning o‘ziga xos bo‘lgan lisoniy boyligini ma’lum o‘lchovlar asosida belgilash, badiiy matnda bajarayotgan vazifasini tahlil etish lingvopoetikaning keng ko‘lamli masalalaridan biriga aylanib ulgurdi. Bunda ijodkor idiolektidagi birliklarni adabiy til me’yorlariga qiyoslash, uning badiiy matndagi alohida ahamiyat kasb etadigan jihati: me’yorga mos yoki mos emasligi orqali muallif individualligini qay darajada ko‘rsata olayotganligi muhim. Ko‘pincha, ijodkorlar so‘zning ifoda imkoniyatlaridan maksimal foydalanish vositalaridan biri sifatida individual so‘z yasashga alohida e’tibor beradilar. Bunday yasalgan leksemalar, ya’ni okkazional so‘zlar o‘zlarining poetikligi bilan ajralib turadi. (Shuning uchun “poetik neologizmlar” deb ham yuritiladi). Okkazionalizmlar yozuvchining tilda hali maxsus va aniq ifodasi bo‘lmagan turli ma’no nozikliklari va o‘ziga xos ekspressivlikni ifodalash, adabiy tilda yo‘qolib ketgan semantik va stilistik xarakterdagi nozikliklarni qayta tiklash kabi maqsadlar bilan paydo bo‘ladi. Ular ifodalilikning yangi vositasi sifatida boshqa til vositalari bilan birgalikda asarning badiiy mazmunini ochishga, individuallikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda tashqi va ichki strukturasiga ko‘ra g‘ayrioddiy bo‘lganliklari uchun ular o‘zlarining yangilik bo‘yog‘ini deyarli doimo saqlaydi. Bunday okkazionalizmlar, asosan, nominativ emas, balki estetik funkiyani bajaradi.

Okkazionalizm hodisasi idiostilni belgilovchi, shakllantiruvchi eng asosiy vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida aytilganidek, okkazional birlikdan foydalanish, uni yaratish usullari ham ijodkorlarda farqlidir.[1] O‘rinli va maqsadga muvofiq, til taraqqiyoti qonuniyatlariga to‘la amal qilgan holda yasalgan okkazionalizmlar ijodkorning so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xosligi va betakrorligini ko‘rsatadi. Uning poetik mahorati yuksakligidan, lisoniy boylikni nozik his qila bilishidan dalolat beradi.

[1] M.Xusanova. Idiostilning shakllanishida okkazional birliklarning o‘rni.Til va adabiyot.uz. //2026.06(74)-son. 11-12-bb.

Ijodkorning badiiy so‘z masalasidagi novatorligini ko‘rsatadi. Bunday novatorlik, qariyb barcha ijodkorda u yoki bu darajada mavjud. Biroq uning ahamiyati matnga mazmunan, til taraqqiyoti qonuniyatlariga mos, badiiy didga muvofiq holda yaratilishi bilan belgilanadi. Ko‘p hollarda okkazional birliklar ijodkor uslubini “tanib olish” uchun “yorliq” darajasigacha chiqadi. Eng sara okkazional birliklarni Usmon Azim she’rlaridan topa olamiz:

Bahor ko‘kartirgan har bir alafni
Saraton so‘ldirgan har gulni, butun
O‘zim deb tushundim – **umrtalabli**
Kuzning har onida bo‘larkan tutun. (36-b)

Ma’lumki, tildagi so‘z yasalishining faol usullaridan biri ikki yoki undan ortiq so‘zning bir leksik birlik sifatida qo‘shilishidir. Ana shu qonuniyat asosida yaratilgan yangi so‘z o‘zining g‘ayrioddiyligi bilan ajralib turadi, kuchli ekspressivlikka ega bo‘ladi. Ayni paytda unda yangilik, “tutilmaganlik, ohorlilik” mavjud bo‘ladi va shuning uchun ham ifodalilikka ega bo‘ladi. Yuqorida shoir tomonidan yaratilgan metaforik semaga asoslangan **umrtalabli** leksemasi uning “xususiy” birligidir. Inson hayotini fasllarga qiyoslash yetakchilik qiladigan Usmon Azim she’riyatida matnning to‘liq metafora asosida yaratilishi bilan birga okkazional birlikka eng muhim, asosiy semaning yuklanishi shoir idiostilini yaqqol ko‘rsatadigan jihat hisoblanadi.

Bundan tashqari, ijodkor idiostilida faqatgina ohang, qofiyani hosil qilish uchun emas, matn badiiyligini ichki semantik uyg‘unlik, falsafiy bir mazmunni badiiy jihatdan yuqoriga ko‘tarishga xizmat qiluvchi okkazional birliklarning yaratilishini kuzatamiz:

Bolalik **bo‘yinsam**, **pokzod** sirdoshim,
So‘zdoshim, ahddoshim, qalbdosh qurdoshim –
Seni sog‘inaman – sog‘ingan g‘arib,
Seni sog‘inaman har kuni qarib.
Kel!.. Mayli, o‘rtada tursin sukunat –
Endi so‘zga sig‘mas bizlarning suhbat... (48)

Ushbu badiiy parchada qator yaratilgan leksemalar lug‘aviy jihatdan puxtaligi, badiiy jihatdan yuksakligi bilan matnda shoirning o‘zigagina xos bo‘lgan teranlikni ifodalaydi. Ayniqsa, **bo‘yinsam** leksemasi (bo‘ylasam emas) obrazni ifodalashda mahzun bir tarixiylik, ko‘hnalik hissini yaratadi va o‘tmishga nazar solishdagi masofani yanada uzoqroq qilib tasvirlash imkonini beradi.

Darhaqiqat, Usmon Azim she’riyatida bunday okkazional birliklar, noodatiy metaforalar salmoqli. Quyida yana bir misol keltirish mumkin:

Bo‘lingansan mingga (qaydasan?):
Biri hazin, boz biri harbli...
Dardnok, dardnok so‘zlar aytasan –
Dard ichinda barchasi qalbli.[2] (147)

Yuqoridagi she’riy matnda qo‘llangan eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan “boz”, “harbli”, “ichinda” leksemalaridagi semantik “vazminlik”, okkazional so‘zning takrori

[2] Азим У. Фонус. – Тошкент: “Sharq”, 2010. 36-147 –bb.

(**dardnok, dardnok**), avval ta’kidlaganimizdek, matndagi yaxlit metaforik ifoda – barchasi shor ijodini yaqqol tanitadigan xususiyatdir. Tahlillardan ko‘rinadiki, ijodkor idiolektida okkazional birliklar badiiy matnda eng yuqori ta’sir kuchiga ega bo‘lgan omildir. Ta’kidlash mumkinki, badiiy matndagi maqsadga muvofiq qo‘llangan okkazionalizmlar o‘quvchiga hech qachon tushunarsiz bo‘lib qolmaydi, aksincha, g‘ayriodatiylik va yangilik bo‘yog‘i bilan haqiqiy obrazlilikni yaratadi. Shubhasiz, bu obrazlilikning yuzaga kelishi yangi so‘z ishtirok etayotgan kontekst strukturasi bilan ham mutlaqo bog‘langan. Okkazionalizmdagi mavjud estetik imkoniyatlarni, hech shubhasiz, kontekst reallashtiradi.

Usmon Azim ijodida yangi so‘z yasash salmoqli o‘rin tutib, bu usul bevosita badiiy matn yaratishdagi boshqa ta’sirchanlikni oshiruvchi usullar bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi. Shoir idiolektida okkazional birliklarning bunday ifoda etilishi san’atkorning so‘z qo‘llash mahorati, badiiy didi, “poetik arxitektirasi” yuqori darajada ekanligini ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография. – Фарғона, 2021. Б– 200.
2. Азим У. Фонус. – Тошкент: “Sharq”, 2010. 159 b.
3. В.П.Григорьев. Будетлянин. Языки русской культуры. Москва – 2000 г.
4. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари:Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т.,2007.
5. M.Xusanova. Idiostilning shakllanishida okkazional birliklarning o‘rni. Til va adabiyot.uz. //2026.06(74)-son. 11-12-bb